

"TASDIQLAYMAN"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi



A. To'rayev

2024-yil 15-noyabr

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi yig'ilishining

93 -son bayoni

Toshkent shahri

2024-yil 15-noyabr

Raislik qiluvchi:

- A. To'rayev – Jamoatchilik kengashi raisi

Qatnashdilar:

- Jamoatchilik kengashi a'zolari, Jamoatchilik
kengashi kotibi

KUN TARTIBI:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik
kengashi faoliyati sarhisobi to'g'risida

(To'rayev, Abduqunduzova, Jamoatchilik kengashi a'zolari, To'rayev)

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining navbatdagi yig'ilishi Kengash raisi Abbosxon To'rayev boshchiligida bo'lib o'tdi. Yig'ilish oflayn va onlayn shaklda o'tkazildi.

Dastlab, Kengash kotibi Nazokat Abduqunduzova yig'ilishda 15 nafar a'zo qatnashayotgani, uni davom ettirish uchun kvorum mavjudligini qayd etib, kun tartibi bilan yig'ilganlarni tanishtirdi. 2024-yilning 3-choragida kengash tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarkibdagi o'zgarishlar, yangi a'zolar, kelgusida Kengash faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilash, shuningdek, ijtimoiy loyihalar tanlovi asosida kelib tushgan loyihalarni moliyalashtirish, vazirlik tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga xulosa berish kabi masalalar ko'rilishi to'g'risida ma'lumot berildi.

Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 15-noyabrda 435-son buyrug'i bilan kengash a'zolari – Kinematografiya agentligi direktori Shuhrat Rizayev va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan aktrisa Gavhar Zokirovalar o'z xohishlariga ko'ra tarkibdan chiqarilib, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori Ismoil Saifnazarov hamda mazkur universitet dotsenti Qobiljon Isayev kiritilgani ma'lum qilindi. Yangi qo'shilgan a'zolar yig'ilganlarga tanishtirildi.

Shundan keyin kun tartibiga ko'ra, kengashning o'tgan uch oy davomidagi faoliyati tahlil qilindi. Hisobot davrida kengash tomonidan 3 ta oliygohda o'rganish olib borilib, abituriyentlar va talabalar o'rtasida so'rovnomalar tashkil etildi, shuningdek, 19-avgust kuni vazirlik tomonidan tashkil etilgan Toshkent shahri va viloyatidagi qator oliy ta'lim muassasalari bo'ylab press-turda 40 dan ortiq jurnalist, blogger, ommaviy axborot vositalari vakillari va jamoatchilik kengashi a'zolari ishtirok etdi.

Press-tur davomida boshlanayotgan o'quv yili uchun yangi barpo etilgan va joriy yilda foydalanishga topshirilishi reja qilingan hamda qurilayotgan talabalar turar joylari bilan tanishildi. Shu bilan birga ularda talabalar uchun yaratilgan sharoitlar o'rganildi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha mas'ullarga taklif va tavsiyalar berildi.

So'ng kengash kotibi N.Abdugunduzova O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024-yil 26-avgustda imzolangan "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-124-son farmonida Jamoatchilik kengashi faoliyatiga doir masalalarga to'xtaldi.

Xususan, Farmonning 8-band ikkinchi xatboshisida davlat organlari huzuridagi Jamoatchilik kengashlari raislari fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan tasdiqlanishi belgilangan.

Vazirlik huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2024-yil 13-avgustdagi yig'ilishida kengash raisligiga Kimyo va biologiya fanlari professori, akademik Abbosxon To'rayev saylangan edi.

Yuqoridagi Farmonga ko'ra Kengash raisi fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan bo'lish kerakligidan kelib chiqib, ushbu masalani qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqligini ta'kidladi, – kengash kotibi.

Kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan nizomga ko'ra Kengash raisi va rais o'rinbosari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri (keyingi o'rinlarda Vazir deb yuritiladi) tavsiyasiga asosan, Kengash a'zolari orasidan saylanishi ko'rsatib o'tildi.

Shunga ko'ra, Kengash kotibi vazir tomonidan Jamoatchilik kengashi raisligiga "Mahorat&Menejment" NTM ijrochi direktori Rashidova Feruza

Musayevna va rais o'rinbosarligiga Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori Saifnazarov Ismoil nomzodlarini tavsiya etganini ma'lum qildi.

Yig'ilishda 14 nafar a'zoning ovoz berish natijasiga muvofiq ko'rsatilgan nomzodlar ma'qullanib, tasdiqlandi.

Shuningdek, Kengashning samarali faoliyat ko'rsatishi borasida fikr-mulohazalar bildirib, hamkorlikda bir qator ijtimoiy loyihalarni yo'lga qo'yish va amalga oshirish yuzasidan takliflar ilgari surildi.

Davlat rahbarining 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son farmoniga muvofiq joriy yil 1-15-noyabr kunlari Vazirlik tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlari uchun oliy va kasbiy ta'lim, ilmfan hamda innovatsiyalar sohalaridagi eng dolzarb muammolar yechimiga qaratilgan ijtimoiy loyihalar tanlovi o'tkazildi (https://t.me/otfiv_rasmiy/4669, <https://gov.uz/oz/edu/news/view/30515>). Tanlovga ustav guvohnomasiga ko'ra ta'lim yo'nalishida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlaridan 2 ta ijtimoiy loyiha kelib tushdi.

Muhokama davomida "Istiqbol" tadqiqot markazi nodavlat notijorat tashkiloti va "O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi" tomonidan tanlovga yuborilgan ijtimoiy loyihalar ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda oliy ta'lim tashkilotlarida to'siqsiz muhitning ta'minlashda yagona standart yo'qligi, ularda faoliyat olib boruvchi professor-o'qituvchilar va xodimlarda inklyuziv madaniyat yetishmasligi bois nogironligi bor shaxslar uchun ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratilmagani alohida ta'kidlandi. Ushbu loyihaning amalga oshirilishi natijasida to'siqsiz muhitni ta'minlashning yagona standarti ishlab chiqilishi, oliygohlar professor-o'qituvchilari va xodimlarning inklyuziv ta'limni joriy qilish borasida xabardorligi oshishi qayd etildi.

Shundan kelib chiqib, Kengash a'zolari tomonidan "O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi" taqdim etgan loyihani moliyalashtirish maqsadga muvofiqligi bildirilib, loyiha ovoz berish yo'li bilan tasdiqlandi.

So'ng, kun tartibidagi navbatdagi masala - Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali (regulation.gov.uz) orqali e'lon qilingan quyidagi hujjatlar muhokama qilindi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy tadqiqot faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni loyihasi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farg'ona viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi

takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori loyihasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning dublikatini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida 2022-yil 21-iyuldagi 395-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori loyihasi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining "O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari ish faoliyatining vaqt me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qo'shma qarori loyihasi.

Ko'rilgan masalalar yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida yig'ilish **qaror qiladi:**

1. Jamoatchilik Kengashi raisligiga – "Mahorat&Menejment" NTM ijrochi direktori **Rashidova Feruza Musayevna**, rais o'rinbosarligiga – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori **Saifnazarov Ismoil** saylangani ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. **Kengash kotibi** (Abduqunduzova) uch kun muddatda Jamoatchilik kengashi tarkibidagi o'zgarishdan kelib chiqib, Vazirlik veb-saytidagi **Kengash tarkibiga doir ma'lumotlarni yangilash** choralarini ko'rsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "**Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**" 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son farmoniga muvofiq joriy yil **1-15-noyabr kunlari** Vazirlik tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlari uchun o'tkazilgan oliy va kasbiy ta'lim, ilm-fan hamda innovatsiyalar sohalaridagi eng dolzarb muammolar yechimiga qaratilgan **ijtimoiy loyihalar tanlovi** natijasiga ko'ra "O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi" tomonidan taqdim etilgan loyiha ijobiy deb baholansin.

4. Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali (regulation.gov.uz) orqali e'lon qilingan quyidagi hujjatlarning **Adliya vazirligiga huquqiy ekspertizadan o'tkazilishiga** rozilik berilsin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilmiy tadqiqot faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni loyihasi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farg'ona viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi;


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori loyihasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning dublikatini berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash haqida 2022-yil 21-iyuldagi 395-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori loyihasi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining "O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari ish faoliyatining vaqt me'yorlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qo'shma qarori loyihasi.

Kengash raisi o'rinbosari:

F. Rashidova



Kengash kotibi:

N. Abduqunduzova

